

**DOSTONLAR, HIKOYA, EPOSLARDA INSONPARVARLIK
G'OYALARINING KUYLANISHI**

Xaydaraliyeva Dilnoza Raxmatjanovna

UNIVERSITY OF MANAGEMENT AND FUTURE TECHNOLOGIES

universiteti pedagogika-psixologiya yo'nalishi 2 kurs talabasi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining eng yorqin va betakror na'munasi hisoblangan dostonlar va eposlarning tarbiyaviy ahamiyati, ularda ifodalangan vatanparvarlik g'oyasi va yoshlar orasida ommaboplik sabablariga alohida to'xtalib o'tiladi. Shuningdek, dostonlarda ifodalangan ma'no mazmunlarni hozirgi hayotimizda ham ahamiyati yo'qolmaganiga alohida to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *doston, epos, baxshi, folklor, hikoya, Alpomish, vatanparvarlik, sarguzasht*

ABSTRACT: *This article focuses on the educative value of epics and epics, which are considered the brightest and unique examples of folk art, the idea of patriotism expressed in them, and the reasons for their popularity among young people. It is also emphasized that the meanings expressed in epics have not lost their importance even in our current life.*

Key words: *epic, epic, bakshi, folklore, story, Alpomish, patriotism, adventure*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье основное внимание уделяется воспитательному значению былин и былин, которые считаются наиболее яркими и уникальными образцами народного творчества, выраженной в них идее патриотизма, а также причинам их популярности среди молодежи. Также подчеркивается, что смыслы, выраженные в былинах, не утратили своего значения даже в нашей нынешней жизни.*

Ключевые слова: *эпос, эпос, бакши, фольклор, рассказ, Алпомиш, патриотизм, приключение.*



KIRISH

Xalq og'zaki ijodi ajdodlarimiz tomonidan yaratib kelingan qo'shiqlar, ertak, hikoya, doston va turli xildagi xalq o'yinlaridan tarkib topgan. Xalq og'zaki ijodi o'z ahamiyatini hozirgacha yo'qotmagan, balki hozirgi yosh avlod o'rganadigan turli xil tarbiyaviy jihatlarni qamrab olgani bilan ahamiyatlidir. Xalq og'zaki ijodida tarannum etilgan vatanparvarlik, vatanni sevish, yorga, do'stga sodiq bo'lish kabilar yoshlarimiz o'rganishi kerak bo'lgan eng ajoyib vositalardir. Xalq og'zaki ijodining o'lmas na'munasi bo'lgan dostonlar esa o'zining qiziqarli syujeti va tarbiyaviy jihatlari bilan hozirgacha yoshlar tomonidan sevib mutolaa qilinadi. Dostonlarning deyarli barchasi sarguzasht va sevgi-muhabbat haqida bo'lishiga qaramasdan, bosh qahramonlarning eng yaxshi hislati sifatida vatanparvarlik tarannum etilgani yaqqol ko'zga tashlanadi. Dostonlar xalq ozaki ijodining eng yirik, salmoqdor, badiiy barkamol janridir. Ular ma'naviyatimiz va badiiy so'z san'atimizning tarixiy asoslari va zamini bo'lishi bilan birga uning bugungi holatini yanada boyituvchi, rivojlantiruvchi cheksiz imkoniyatlar manbai hamdir. Dostonlar ajdodlar va avlodlar jonli aloqasini, vorisligini o'zida mujassamlashtiradi. Ular xalq ijtimoiy-maishiy hayoti bilan bevosita bog'langanligi tufayli har bir kishiga o'z xalqi, uning tarixi va kelajagi, istiqboldagi orzu-umidlari bilan vobastalikni his etishga, amaliy faoliyatda esa yuksak axloqiy g'oyalarni asos qilib olishga yordam beradi. Shuning uchun ham dostonlarni to'plash, o'rganish va nashr etish hamisha dolzarb vazifa bo'lib kelgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Dostonlarda ezgulik, ozodlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, qahramonlik kabi insoniy g'oyalar mislsiz mahorat bilan tarannum etilgan va insonni hamisha ma'naviy kamolot sari yetaklagan. Ana shunday umrboqiy asarlardan biri «Alpomish» dostonidir. O'n asrki bu doston nafaqat xalq tilida balki xalq dilida yashab keladi. Filolog M.Qo'shmoqovning yozishicha: «Alpomish alp bo'lgani uchun ming yillar davomida xalq yuragida o'lmay yashab keladimi? Aslo! Alplik Alpomish obrazining bir qirrasi, xolos. Alpomish aslida ma'naviyat qahramonidir. U vatan mustaqilligi, xalqning ma'naviy birligi uchun ozodlik, ezgulik, tinchlik uchun kurashgan qahramon... Ma'naviyat qahramoni bo'lgani tufayli ham u xalqning ideal



qahramoniga aylandi. Shuning uchun o'zbek xalqi o'z tarixining eng qora kunlarida ham Alpomishni yuragida saqladi, undan madad oldi. Undan ibrat qilib Alpomish o'g'illarni, Barchin qizlarni voyaga yetkazdi». «Alpomish» dostonida ishq - muhabbat, jang lavhalari, tarixiy ma'lumotlar bor, ma'lum sabab bilan ajralib ketgan xalqni birlashtirish yo'lida xizmat ko'rsatgan xalq farzandining yurt ozodligi, elni birlashtirish maqsadidagi safarlari, o'zidan son va kuch jihatidan ustun turgan dushman bilan olishuvlar aks etadi. Dostonda kattalami hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish kabi ibratli tarbiyaviy tushunchalar, oilada farzandlar fikriga quloq solish, ular bilan maslahatlashish, aka-ukalar o'rtasidagi munosabatlar ham tasvirlangan. Shuningdek, o'zbekning qadimiy urf-odatlaridan bo'lgan sovchilarni kutish, mehmon qilish, ularning hurmatini joyiga qo'yish, izzatini qilish, shirinso'zlik bilan muomala qilish kabi axloqiy xislatlar ham o'z ifodasini topgan. Dostondagi qahramonlik jasoratlarini Barchin obrazida ham ko'rishimiz mumkin. Barchin alplarning eng zo'ri Ko'kaldoshdan olti oy muhlat so'raydi, ular ko'nishadi; o'n yigitga o'n bedov otni berib xat yozib Alpomishga jo'natadi: «Olti oychalik yo'lga keldim, qalmoqning eliga keldim, zo'r yovning qo'lida qoldim, olti oylik muhlat oldim, mendan umidi bo'lsa, Alpomish kelsin, bo'lmasa javobimni bersin», - deydi. Doston yoshlarda yoriga vafodorlik, sadoqatlik kabi xislatlarni shakllantirishda ham muhim vosita sanaladi. Dostonda aka-singil o'rtasida mehr-oqibat, oila sha'nini himoya qilish, singilning akaga mehri kabi fazilar ham ifodalangan. «Alpomish» dostoni o'zbek xalqining sevikli dostoni bo'lgani bejiz emas. Undagi voqealar hayotiyli va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi, mardlik, fidoiylilik, samimiyat, to'g'rilik, hamiyatlik, do'stga sodiqlik, yorga vafodorlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlardan iborat bo'lgan o'zbek milliy ruhiyati yaqqol ko'rinadi. Ko'rib turganimizdek, dostonlar yigitlarimizni mardlikka, jasurlikka, mehnatsevarlikka chorlaydi. Shuningdek, do'stga vafodorlik, aka- uka o'rtasidagi mehribonlik, otanaga g'amxo'r bo'lishga o'rgatadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, o'zbek xalq og'zaki ijodining salmoqli qismini egallagan dostonlar va ushbu dostonlarning gultoji hisoblangan. "Alpomish"



dostonining har bir qahramoni u xoh ijobiy xoh salbiy qahramon bo'lsin, ular asl o'zbek yoshlarining tarbiyasiga ta'sir qilib, o'zida xalqimizning asriy an'alarini saqlab, kelajak avlod vakillariga yetkazishda dastur amaliy vazifasini bajarishda yetakchilikni boy bermay kelmoqda va bu vazifani bajarishda davom etaveradi.

Demak, xalq og'zaki ijodining barcha janrlarida, jumladan doston- larda ilgari surilgan muhim g'oyalar, ijobiy qahramonlar timsolida mu- jassamlashgan insoniy fazilatlar, milliy qadriyatlar hozirgi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi ishonch-e'tiqodlar, urf-odatlar, udumlar mohiyatini kelajak avlodga yetkazishning eng sa- marali yo'li ham xalq og'zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish- dan iboratdir. Zero, bu durdonalar turli ramziy obrazlar orqali o'tmishi- miz bilan hozirimizni bir-biri bilan chambarchas bog'lab turadi, yosh- larga estetik zavq va did bag'ishlashdan tashqari axloqiy shuurini ham uyg'otadi.

ADABIYOTLAR:

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Хайдаров, С. (2023). Педагогик faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
3. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
4. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
5. Хайдаров С. (2025). Oilalarda farzand tarbiyasiga ruhiy ta'sir etkazish. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
6. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.



7. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
8. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.